Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
BURNOUTNING OLDINI OLIH: XODIMLAR SALOMATLIGI STRATEGIYASI	731
Ergasheva E'zoza Dilshod qizi	
O'ZBEKISTONDA KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	736
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLIHNING INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI	742
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	748
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI	754
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umidbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	



SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI

Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishning mohiyati, uning iqtisodiyotdagi o'rni hamda sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillari tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalarini samarali rivojlantirish uchun zamonaviy tarmoqlarni diversifikatsiyalash va sanoat mahsulotlari hajmini ko'paytirish asosida jamiyatda mehnat salohiyatini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Shu maqsadda muayyan ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, aholi bandligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholining sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabini shakllantirish hamda mehnat taqsimotini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, sanoat korxonalari, YAIM, sanoat mahsuloti, mexanizm, aholi bandligi, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, yechim yo'llari.

Abstract. This article analyzes the essence of economic growth, its role in the economy, and the main factors affecting the economic development of industrial enterprises. It also highlights the importance of creating certain socio-economic conditions for the effective development of industrial enterprises through the diversification of modern industries and the increase in the volume of modern industrial products, as well as the enhancement of society's labor potential, ensuring employment, increasing the gross domestic product, and stimulating consumer demand for industrial products.

Key words: economic growth, industrial enterprises, GDP, industrial products, mechanism, employment, socio-economic problems, and solutions.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность экономического роста, его роль в экономике и основные факторы, влияющие на экономическое развитие промышленных предприятий. Также освещаются вопросы создания определенных социально-экономических условий для эффективного развития промышленных предприятий путем диверсификации современных отраслей и увеличения объемов современной промышленной продукции, повышения трудового потенциала общества, обеспечения занятости населения, увеличения объема валового внутреннего продукта, формирования спроса населения на промышленную продукцию, расширения разделения труда.

Ключевые слова: экономический рост, промышленные предприятия, ВВП, промышленная продукция, механизм, занятость населения, социально-экономические проблемы, пути решения.

KIRISH

Bugungi kunda mintaqalarda sanoat korxonalarini jadal rivojlantirish asosida iqtisodiy o'sish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali hududiy yalpi ichki mahsulot hajmining 1,5–2,0 baravarga oshishi kuzatilmoqda. Sanoat korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish, korxonalar ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahsulot qiymatini yaratish zanjirini baholash orqali sanoatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi masalalarga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa dunyo miqyosida sanoat korxonalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ko'paytirish va ularning sifatini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. "Mahalliy sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni diversifikatsiya qilish, hududlarning mavjud tabiiy hamda iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida sanoat mahsulotlarini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish" [2] mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishlarning ustuvor vazifa sifatida belgilanishi sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishini ta'minlash zarurligini asoslaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalari iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik masalalarining ilmiy asoslari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan tizimli o'rganilgan. Xususan, P.F. Drucker [3], B.Z. Milner [4], F. Herzberg [5], G. Emerson [6] kabi olimlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlari bu borada muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, mazkur muammolar yechimiga qaratilgan sanoatni rivojlantirish, uning iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda sanoat mahsulotlari qiymatini yaratish zanjiri samaradorligini baholash bo'yicha MDH davlatlari olimlari — N.K. Vasilyeva [7], V. Parakhina [8], Yu.V. Pilipuk [9], Ye.Yu. Shutilina [10] ning ilmiy ishlari, xulosa va natijalari e'tiborga molikdir.

O'zbekiston olimlari orasida ham A.M. Kadirov [11], M.A. Mahkamova [12], B.T. Salimov [13] tomonidan sanoat korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish, sanoat mahsulotlarining iqtisodiy o'sishini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan hamda e'tiborga loyiq ilmiy natijalarga erishilgan. Biroq, yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim jihatlari o'rganilgan, ammo ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berish, sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari, shuningdek hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlilda induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, jadval hamda grafik usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot natijalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sishni YAIMning real hajmi yoki milliy daromad o'sish sur'atlari, yoki bu ko'rsatkichlarning aholi jon boshiga hisoblagandagi o'sish sur'atlari bilan o'lchanadigan iqtisodiyotning muayyan davrdagi rivojlanish darajasi sifatida ifodalash mumkin. Bunda o'sish sur'ati, bir tomondan, mamlakat iqtisodiy salohiyatining kengayish darajasini baholashda, ikkinchi tomondan esa aholi farovonligi dinamikasini tahlil etishda hamda turli mamlakatlar va mintaqalardagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy o'sishni baholashda aynan ikkinchi yondashuv — ya'ni milliy iqtisodiyotda real milliy daromad o'sish sur'atlari aholining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan rivojlanish darajasi — ustuvor hisoblanadi.

Mintaqalarda sanoat korxonalari rivojlanish bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, rivojlanish bosqichida esa moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, ilg'or texnologiyalar va venchur biznes asosida shakllanayotgan iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelmoqda.


Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Inson tafakkuri endilikda ishlab chiqarish tizimining oddiy unsuri emas, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan. Dastlab insonni rivojlantirish tushunchasi tarbiya, ta'lim, bilim va salomatlik kabi elementlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, uzoq vaqt davomida bu jarayonga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtayi nazaridan ijtimoiy, ya'ni chiqimli omil sifatida qaralgan. Tarbiya va ta'limga investitsiyalar uzoq vaqt davomida noishlab chiqarish xarajatlari sifatida talqin qilingan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitaliga, ayniqsa ta'lim va bilimga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi — ular iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etila boshlandi.

Mintaqada sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti bo'lib, u sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni va tarmoq xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Bizning fikrimizcha, mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida shakllanadigan muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonidagi ilmiy asoslangan qoidalarni aks ettiradi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bir qator tamoyillarga asoslanmog'i lozim, bunda iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari o'sish samaradorligini oshirib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot hajmining real o'sishiga imkon yaratishi zarur.

Iqtisodiy o'sishga ko'plab omillar, jumladan iqtisodiy tizimning tashkil etilishi, iqtisodiyotning tuzilishi, milliy daromadning taqsimlanishi, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy holati va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash



joizki, “iqtisodiy o’sish” tushunchasi “iqtisodiy rivojlanish” tushunchasi bilan chambarchas bog’liqdir. Ularning mohiyati va mazmuni shu qadar yaqin bo’lib, iqtisodiy dinamikaga oid ayrim tadqiqotlarda ular sinonim, ya’ni ma’nodosh tushuncha sifatida ishlatiladi. Iqtisodiy o’sish ko’plab omillarga bog’liq bo’lib, unga ta’sir ko’rsatish vositalari bo’yicha omillar bevosita va bilvosita turlarga ajratiladi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o’sish xususiyatlari va omillari [2]

Bevosita omillarga taklif omillari kiradi. Ular quyidagilardan iborat: mehnat resurslarining miqdori va sifati, tabiiy resurslarning miqdori va sifati, asosiy kapital hajmi, texnologiya va ishlab chiqarishning tashkil etilishi, jamiyatda tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanish darajasi.

Bilvosita omillarga esa talab omillari kiradi, jumladan iste’mol, investitsiya va davlat xarajatlarning o’sishi, shuningdek eksport hajmining ortishi.

Taqsimlash omillari esa quyidagilardan iborat: bozorning monopollashuv darajasini kamaytirish, iqtisodiyotda qulay soliq muhitini shakllantirish, kredit-bank tizimining samaradorligini oshirish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslarini iqtisodiyot tarmoqlari o’rtasida qayta taqsimlash imkoniyatlari hamda daromadlarni taqsimlashning amaldagi tizimi.

Ushbu omillarning sanoat korxonalarining rivojlanishiga ta’sir darajasi iqtisodiy o’sish turini belgilaydi. Iqtisodiy o’sishning ikki asosiy turi mavjud:

Ekstensiv o’sish — bunda iqtisodiy o’sish ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish omillarining miqdor jihatdan ko’paytirilishi hisobiga ta’minlanadi. Ya’ni jamiyat tabiiy, mehnat va investitsiya resurslaridan ko’proq foydalanadi va shu orqali sohada yalpi mahsulot hajmining o’sishi ta’minlanadi.

Intensiv o’sish — bunda sanoat korxonalarida iqtisodiy o’sish ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan takomillashtirish hamda ulardan samaraliroq foydalanish orqali amalga oshiriladi. Intensiv iqtisodiy o’sishda yalpi mahsulot hajmi yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishchi kuchi malakasini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari o’rtasida maqbul tarzda qayta taqsimlash va boshqa omillar hisobiga oshiriladi.



Amaliyotda ekstensiv yoki intensiv iqtisodiy o'sishni "sof" holda uchratish qiyin. Odatda qaysi omillar — intensiv yoki ekstensiv — ustuvorlikka ega ekaniga qarab, ko'proq intensiv yoki ko'proq ekstensiv iqtisodiy o'sish farqlanadi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning o'ziga xos jihatlari [2]

1. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish maqsadlari. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning ikki asosiy darajasi mavjud: makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishi. Iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli maqsadi iqtisodiyotning barcha subyektlari o'rtasida uzviy rivojlanishni ta'minlash, ularning har biri tomonidan ma'lum strategik vazifalarga erishishni ko'zda tutadi.

2. Iqtisodiy o'sish turlari. Sanoat korxonalarida mavjud iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish omillarining mutanosibligi va o'zaro ta'siri iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlarini belgilaydi. Ekstensiv o'sish ishlab chiqarish hajmini resurslarni ko'paytirish hisobiga ta'minlansa, intensiv o'sish esa mavjud resurslardan samaraliroq foydalanish, texnologiyalarni yangilash va mehnat unumdorligini oshirish orqali amalga oshadi.

3. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish jarayoni miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Miqdoriy ko'rsatkichlarga yalpi mahsulotning o'sish sur'ati, jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi mahsulotning o'sish darajasi, sanoat mahsulotlari hajmi, mehnat unumdorligi kabi parametrlar kiradi.

4. Iqtisodiy o'sish samaradorligi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish samaradorligini oshirish natijasida jamiyatning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyati kengayadi. Bu jarayon iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi va aholi farovonligining yaxshilanishiga olib keladi.

5. Iqtisodiy o'sish ziddiyatlari. Sanoat korxonalarida yalpi mahsulotning mutlaq yoki nisbiy o'sishi har doim ham turmush darajasi va sifatining oshishiga olib kelavermaydi. Mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari — jumladan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va aholining jon boshiga o'rtacha daromadi — ijtimoiy resurslarning taqsimlanish darajasi va tarmoqlar rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

6. Iqtisodiy o'sish omillari tizimi. Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish omillari — bu o'sishning mohiyati, turlari va dinamikasini belgilovchi sabab-oqibatli hodisalardir. Ushbu omillarni to'g'ri aniqlash uchun yalpi mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi asosiy resurslar — mehnat va kapital — o'rganilishi lozim. Yalpi mahsulot o'sishini jadallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

sanoat korxonalarining zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarishni raqamlashtirish va diversifikatsiyalash;

xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish;

bandlik darajasini oshirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;

yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish hamda investitsiyalarning qaytish darajasini oshirish;

innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, texnik va texnologik yangilanishni ta'minlash;

iqtisodiy o'sishni barqaror ta'minlash uchun resurs salohiyatini kuchaytirish;

ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va sun'iy intellektdan samarali foydalanish.

Shunday qilib, "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" o'rtasidagi asosiy farq ularning mazmunidadir.



Iqtisodiy o'sish — bu ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy belgilariga yalpi ichki mahsulotning umumiy va jon boshiga yillik o'sish sur'atlari kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, aholining zaruriy ta'lim darajasini, ilm-fanning rivojlanishini va axborot muhitining yuqori sifatini ta'minlay olmagan davlatlar tashqi savdoning salbiy balansiga, shuningdek tashqi moliyaviy va axborot markazlariga qaramlikka mahkum bo'ladi. Natijada bunday mamlakatlar intellektual salohiyatni jamlagan transmilliy korporatsiyalar va rivojlangan davlatlar uchun xomashyo bazasiga aylanadi.

Bozor munosabatlari tizimida iqtisodiy o'sishga xo'jalik faoliyati institutlari, ularning faoliyatini ta'minlaydigan muassasalar va tashkilotlarning rivojlanish darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda hayot farovonligini oshirishga, tadbirkorlikni rag'batlantirishga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga, jamg'armalar va investitsiyalar uchun ijobiy motivatsiya yaratishga xizmat qiluvchi samarali institutlar tizimi shakllangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish — bu sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, ularni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Jahon banki hisobotlarida qayd etilishicha, rivojlanishning maqsadi nafaqat daromadni oshirish, balki hayot sifatini yaxshilashdir. Bunga sifatli ta'lim, sog'lom ovqatlanish, sog'liqni saqlash tizimi, qashshoqlikni kamaytirish, ekologik xavfsizlik, teng imkoniyatlar, shaxsiy erkinlik va boy madaniy hayotni rivojlantirish kiradi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi va uni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida qaraladi. Bu jarayon, bir tomondan, rivojlanishning siklik tabiati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, turg'unlik va inqiroz davrlarida tayyorlangan islohotlar natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish esa, birinchi navbatda, iqtisodiyotning taraqqiyot qobiliyatini, ishlab chiqarish strukturasi va institutsional muhitning o'zgarishini, demografik hamda innovatsion dinamizmni o'zida aks ettiradi.

Boshqacha aytganda, iqtisodiy rivojlanish — bu iqtisodiy o'sish omillarining sifat jihatidan yangilanishi va ularning natijasida innovatsion o'zgarishlarning kafolatlanishidir. Shu sababli, har qanday milliy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga erishish uchun inson kapitali, ta'lim tizimi va innovatsion muhitni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.imf.org/ru/Blogs/Articles/2023/01/30/global-economy-to-slow-further-amid-signs-of-resilience-and-china-re-opening>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 9 сентябрдаги «Республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ҳамда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлақонли таъминлашга доир чора тadbirlar tўғрисида»ги ПҚ-4821-сон қарори.
3. Друкер П.Ф. Бизнес и инновации. — М.: Academia, 2009. — 221 с.;
4. Мильнер Б.З. Теория организации: Учебник. - 7-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2009. — 864 с.;
5. З.Портер М. Конкуренция. — М.: Вильямс, 2010. — 592 с.;
6. Херцберг Ф., Моснер Б., Блох Снидерман Б. Мотивация к работе. — М.: Вершина, 2007. — 240 с.;
7. Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности. — М.: URSS, 2019. — 224 с.;
8. Васильева Н.К., Мезина С.А., Воротникова А.М. Анализ финансового состояния предприятий пищевой промышленности //Вестник Академии знаний. — 2020. — №. 2 (37). — С. 105-110;
9. Парахина Л.В. Управление ресурсосберегающей деятельностью и оценка ее эффективности на предприятиях пищевой промышленности: автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. Орел 2013. — 24 с.;
10. Пилипук А.В. Конкурентоспособность предприятий пищевой промышленности Беларуси в условиях построения Евразийского экономического союза. — Минск: Институт системных исследований в АПК НАН Беларуси, 2018. — 237 с.;
11. Шутилина Е.Ю. Формирование инновационной политики предприятий: на примере предприятий пищевой промышленности: автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. Воронеж 2009, 24 с.; 20.Якушков Д.Ю. Анализ рынка пищевой промышленности и перспективы его развития // Экономика и бизнес: теория и практика. — 2018. - №6. — С. 216-218.
12. Кадыров А.М. Инновационный потенциал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка. Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновации, конкурентоспособность, инвестиции» — Т.: 23 апреля 2018 г.;
13. Махкамова М.А. Формирование организационно- экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс. док. экон. наук. — Т.: 2004. — 291 с.;
14. Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона (на примере Сырдарьинской и Джизакской областей Республики Узбекистан): дисс д.э.н. - Т.: 1992.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>